



KASBIY KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA LINGVOPRAGMATIK YONDASHUVNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Jamalova Dilafruz Komiljon qizi

Namangan davlat universiteti doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17411890>

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida kasbiy kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda lingvopragmatik yondashuvning nazariy va metodik asoslari tahlil qilinadi. Lingvopragmatika, kommunikativ nazariya, nutqiy aktlar va ijtimoiy-kognitiv o'qitish tamoyillari zamonaviy ta'lim jarayoniga integratsiya qilinadi. O'rganish jarayonida tilning kommunikativ va ijtimoiy funksiyalari orqali talabalarning kasbiy muloqotga tayyorgarligini oshirish yo'llari ko'rsatilib, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi interaktiv, kontekstual va madaniy muloqotning o'rni asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: lingvopragmatika, kommunikativ kompetensiya, nutqiy akt, kontekst, kasbiy til, ESP, CLIL, madaniyatlararo muloqot, lingvodidaktika.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и методические основы формирования профессиональной коммуникативной компетенции в системе высшего образования на основе лингвопрагматического подхода. Показано, как интеграция прагмалингвистики, теории речевых актов и социокогнитивного обучения способствует развитию у студентов способности адекватно использовать профессиональный язык в реальных коммуникативных ситуациях. Особое внимание уделено роли контекста, интерактивных заданий и межкультурных факторов в процессе обучения.

Ключевые слова: лингвопрагматика, коммуникативная компетенция, речевой акт, контекст, профессиональный язык, ESP, CLIL, межкультурная коммуникация.

Abstract: This article explores the theoretical and methodological foundations of developing professional communicative competence in higher education through a linguopragmatic approach. The integration of pragmalinguistics, speech act theory, and socio-cognitive teaching principles enhances learners' ability to use professional language effectively in real communicative contexts. The study emphasizes the significance of context, interaction, and intercultural awareness in developing professional communication skills.

Keywords: linguopragmatics, communicative competence, speech act, context, professional language, ESP, CLIL, intercultural communication.

Zamonaviy ta'lim paradigmasida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish masalasi inson kapitalining sifat ko'rsatkichlaridan biri sifatida qaralmoqda. XXI asrda ta'lim jarayoni bilimlarni yodlash emas, balki ularni amaliy muloqotda qo'llay olishga yo'naltirilmoqda. Oliy ta'lim muassasalari oldida turgan eng muhim vazifa - o'z sohasining mutaxassislari bo'lajak yoshlarni til orqali fikrlash, fikrni mantiqan ifodalash va madaniy kontekstda uzatish ko'nikmalariga ega etishdir. Shu nuqtai nazardan lingvopragmatik yondashuv til o'qitish metodologiyasining markaziga aylanmoqda.

Lingvopragmatika - bu til birliklarining ma'no va vazifasini ularning kommunikativ niyati va ijtimoiy konteksti asosida tahlil qiluvchi yo'nalishdir. Ushbu yondashuv Vygotskiy, Searle,

Grice, Leech, Austin kabi olimlarning nutqiy aktlar nazariyasiga tayangan holda, tilni faqat grammatik tizim emas, balki ijtimoiy harakat vositasi sifatida talqin qiladi.[1,2,3,4,13] Tilning mohiyati, mazkur nazariyaga ko'ra, gapiruvchining niyatini (illokutsion maqsad) tinglovchi tomonidan tushunish mexanizmida namoyon bo'ladi. Shu bois til o'qitish jarayonida «nutqiy niyat - kontekst - muloqot» zanjiri asosiy didaktik struktura sifatida olinadi. Kasbiy kommunikativ kompetensiya esa shaxsning o'z mutaxassislik sohasi bo'yicha muloqot olib borish, kasbiy terminlarni maqsadga muvofiq qo'llash, fikrni pragmatik jihatdan to'g'ri ifodalash ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Bu kompetensiyaning tarkibiy qismlari sifatida: lingvistik kompetensiya (grammatika, leksika, sintaksisni bilish); sotsiolingvistik kompetensiya (madaniy va ijtimoiy kontekstda mos nutq); pragmatik kompetensiya (maqsadga yo'naltirilgan muloqot) ajratiladi. O'zbekiston ta'lim tizimida, xususan, Milliy o'quv dasturi va PF-60 Farmon asosida, kasbiy kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish jarayonida lingvopragmatik metodologiyaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, texnik yo'nalishlarda (masalan, oziq-ovqat texnologiyasi, muhandislik, biotexnologiya) talabalar uchun til - bu ish jarayonining vositasi sifatida o'qitilishi kerak.[17] Bunday ta'lim modelida til mashg'ulotlari terminologiyani o'rganish bilan emas, balki nutqiy vaziyatda maqsadli qo'llay olish bilan belgilanadi.

Coyle, Hood va Marsh tomonidan ishlab chiqilgan CLIL modeli lingvopragmatik yondashuv uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Bu modelda til mazmun bilan birgalikda o'qitiladi, ya'ni o'quvchi terminlarni emas, balki fan tilini kontekstda o'zlashtiradi.[8,9,12] Bu esa ESP tamoyillariga mos keladi, chunki talaba terminlarni «bilish» emas, «ishlatish» darajasiga chiqadi. Demak, lingvopragmatik yondashuvning ta'limdagi dolzarbligi shundan iboratki, u kasbiy muloqot jarayonini simulyatsiya qilish, ya'ni real hayotdagi kommunikativ holatlarni dars jarayoniga olib kiradi. O'qituvchi esa bilim beruvchi emas, balki kommunikativ jarayonni tashkil etuvchi fasilitator rolini bajaradi. Shu bois, hozirgi maqola kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda lingvopragmatik yondashuvning didaktik imkoniyatlarini, metodik strukturasini va psixologik asoslarini tahlil qilishga qaratilgan.

Metod

Ushbu tadqiqot nazariy-analitik yo'nalishda olib borildi. Asosiy metodologik baza quyidagi manbalarga tayandi: nutqiy aktlar nazariyasi; kooperativlik prinsipi; xushmuomalalik nazariyasi[4]; madaniyatlararo muloqot modeli. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Nazariy tahlil va sintez - lingvopragmatikaning asosiy kategoriyalarini o'rganish;
2. Kuzatuv va nutqiy diskurs tahlili - oliy ta'limda o'quvchilarning kasbiy muloqotdagi nutq namunalarini tahlil qilish;
3. Komparativ metod - o'zbek, rus va ingliz tillarida kasbiy kommunikatsiyaning pragmatik strategiyalarini solishtirish;
4. Didaktik modellashirish - ESP va CLIL yondashuvlari asosida lingvopragmatik o'qitish modelini yaratish.

Tadqiqot jarayonida 72 nafar talaba (oziq-ovqat texnologiyasi yo'nalishidagi 2-4 kurslar) ishtirok etdi. Mashg'ulotlarda real kommunikativ vaziyatlarga asoslangan terminologik mashqlar, rol o'yinlari, vaziyatli muammolar, debatalar va matnli tahlil topshiriqlari qo'llanildi. Har bir mashg'ulotda maqsad - talabaning illokutsion maqsadini aniqlash, uni to'g'ri ifodalash va kommunikativ maqsadga erishish qobiliyatini rivojlantirish edi. Baholash jarayonida

refleksiv kuzatuv varaqalari, peer-assessment kartalari va kommunikativ faoliyat indikatorlari asosida diagnostika o'tkazildi.

Adabiyotlar tahlili

Tilshunoslikning pragmatik yo'nalishi XX asr o'rtalarida mustaqil fan sifatida shakllandi. Charles Morris[12] til tizimini uch bosqichda - sintaktika, semantika va pragmatika - tarzida tasniflab, pragmatikani «belgining foydalanuvchi bilan munosabati»ni o'rganadigan yo'nalish sifatida belgiladi. Bu yondashuv til birliklarini formal tuzilma sifatida emas, balki inson faoliyati va ijtimoiy kontekst mahsuli sifatida talqin qilishga imkon berdi. John L. Austin[1] «How to Do Things with Words» asarida nutqning amaliy kuchini ochib berdi. Uning fikricha, har bir bayon (utterance) ma'no bilan birga harakatni ham bildiradi. Bu yondashuv «performativlik» tushunchasiga asos bo'ldi, ya'ni til - bu faqat fikr ifodasi emas, balki amalga oshiruvchi ijtimoiy vosita. John R. Searle[2] bu nazariyani chuqurlashtirib, «nutqiy aktlar nazariyasi»ni ishlab chiqdi. U nutqni lokutsion, illokutsion va perlokutsion aktlarga ajratdi. Bu tasnif o'qitish jarayonida, xususan kasbiy muloqotda, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi maqsadga yo'naltirilgan muloqotni tahlil qilish uchun metodik asos yaratadi. Masalan, o'qituvchi «Let's analyze the reaction process again» deganda u nafaqat buyruq beradi, balki motivatsion illokutsiyani ham yaratadi. Paul Grice[3] tomonidan ilgari surilgan kooperativlik prinsipi tilning pragmatik tizimida markaziy o'rin tutadi. Grice nutqiy muloqotning samaradorligi «to'rtta maksim»ga - aniqlik, haqiqat, izchillik va moslik - tayanishini isbotladi. Bunday yondashuv kasbiy muloqot jarayonida ayniqsa muhim, chunki har bir texnik yoki ilmiy tushuncha aniq, maqsadga yo'naltirilgan va kontekstualashtirilgan bo'lishi kerak. Geoffrey Leech[4] esa «Politeness Principle»ni kiritib, tilning sotsiopragmatik funksiyasini ochdi. Uning fikricha, til madaniy etik me'yorlarni saqlagan holda muloqot qiluvchi shaxslar o'rtasida muvozanatni ta'minlaydi. Shu sababli, tilni o'qitishda madaniy kontekstni hisobga olish - bu nafaqat estetik, balki didaktik zaruratdir. M.A.K. Halliday[5] tomonidan ishlab chiqilgan systemic functional linguistics modeli esa tilni metafunksiyalar tizimi sifatida talqin qildi: fikrni ifodalovchi, muloqotni tashkil qiluvchi, tuzilmani ta'minlovchi. Bu model lingvopragmatika va kommunikativ kompetensiya o'rtasidagi ko'prikn shakllantirdi. Shunday qilib, bu olimlarning nazariyalari tilni o'rganish va o'qitishda grammatik bilimdan kommunikativ faoliyatga o'tish bosqichini belgiladi.

XXI asr ta'lim paradigmasi kommunikativlik, interaktivlik va madaniyatlararo muloqot tamoyillariga asoslanadi. Shu sababli lingvopragmatika zamonaviy ta'limda metodik tizim sifatida qaralmoqda. Canale va Swain[7] kommunikativ kompetensiya nazariyasini ishlab chiqib, uni to'rtta komponentga ajratdi: grammatik kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya, diskursiv kompetensiya, strategik kompetensiya. Shu tizimda pragmatik komponent har bir qismni bog'lovchi omil sifatida ishlaydi. Bu model O'zbekiston ta'limida ham CLIL va ESP asosli mashg'ulotlarni loyihalashda muhim manba hisoblanadi.

Hymes[6] «communicative competence» tushunchasini kiritgan holda, til bilimini ijtimoiy faoliyat sifatida talqin qilgan. U til o'rganish natijasida ijtimoiy ahloqiy muloqot qoidalarini bilish zarurligini ta'kidlagan. Bu aynan kasbiy muloqotdagi etik pragmatikaga asos bo'ladi: talabalar tilni texnik ma'noda emas, balki madaniy jihatdan mos shaklda ishlatishni o'rganadilar. Widdowson[14] til o'qitishda «discourse competence» tushunchasini ilgari surib, har bir matn va nutq birligi o'zining maqsadli kontekstida o'rganilishi zarurligini ko'rsatdi. Shu jihatdan lingvopragmatik yondashuv matn tahlilida kontekstual semantika va nutqiy strategiyalarni o'z ichiga oladi.



CLIL modeli - Coyle, Hood va Marsh[8] tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u o'qitishda mazmun (content) bilan til (language)ni integratsiya qilishga qaratilgan. CLIL metodologiyasi lingvopragmatik yondashuv bilan bevosita bog'liq, chunki unda o'qitish jarayoni kommunikativ kontekst asosida tashkil etiladi.

Coyle «4C Framework» - Content, Communication, Cognition, Culture - konsepsiyasini ilgari surgan. Bu tizimda talaba o'rganayotgan terminologiyani amaliy muloqot orqali idrok etadi, bu esa pragmatik nutqiy kompetensiyani rivojlantiradi.

ESP - English for Specific Purposes modeli esa kasbiy ehtiyoj asosidagi o'qitish tamoyiliga tayanadi[Ошибка! Источник ссылки не найден.]. ESP darslarida lingvopragmatik vazifalar - ya'ni «nima uchun», «kim bilan» va «qayerda» gapirilayotganini anglash - asosiy o'rinni egallaydi. Bu yondashuv talabalarda kasbiy muloqotda to'g'ri intonatsiya, so'z tanlash va madaniy ohangni shakllantiradi. Bu ikki modelning uyg'unlashuvi O'zbekiston oliy ta'lim tizimida, xususan, texnik fakultetlarda samarali qo'llanilmoqda. Rustamova F.M.[20] o'z tadqiqotlarida CLIL asosida terminologik kompetensiyani shakllantirish o'quvchilarni nutqiy faollikka va ijodiy tafakkurga olib kelishini isbotlagan. Mahmudov A.X.[18] esa o'qitishda lingvometodik integratsiyani nazariy jihatdan asoslab, kasbiy kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda mazmunli muloqotning o'rni beqiyos ekanini ta'kidlaydi. Muslimov N.A.[19] «kompetensiyaviy yondashuv» nazariyasini amaliy o'qitishga tatbiq etib, ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi interaktiv kommunikatsiya lingvopragmatik asosni tashkil etishini ko'rsatgan.

Lingvopragmatika kognitiv lingvistika bilan bevosita aloqador. Lakoff va Johnson[10] «Metaphors We Live By» asarida metafora - bu nutqning bezagi emas, balki tafakkur mexanizmi ekanini isbotladi. Kasbiy til o'qitishda bu yondashuv o'quvchilarga terminlarni kognitiv kontseptlar orqali o'zlashtirish imkonini beradi.

Bruner[11] o'qitishning madaniy vositachilik modeli haqida so'z yuritib, bilimlar ijtimoiy kontekstda shakllanishini ta'kidlagan. Bu fikr lingvopragmatik yondashuvning psixopedagogik mohiyatini belgilaydi: muloqot jarayoni shunchaki til o'rganish emas, balki fikr va identifikatsiyani shakllantiruvchi jarayondir.

Til - bu madaniyatning ko'zgusi. Shu sababli lingvopragmatika madaniyatlararo kommunikatsiya bilan uzviy bog'liq. Kramersch[12] «Language and Culture» asarida madaniy kontekstni hisobga olmagan ta'lim natijasida kommunikativ kompetensiya yuzaki bo'lishini ta'kidlaydi. O'quvchi faqat grammatikani emas, balki sotsiomadaniy signallarni ham idrok etishi zarur. Byram[13] «intercultural communicative competence» modelini ishlab chiqib, til o'qitishda sotsial identifikatsiyani shakllantirish zarurligini ko'rsatgan. Bunda o'quvchi boshqa madaniyatni tushunish bilan birga o'z madaniyatini ham tahlil qilishni o'rganadi.

O'zbekiston sharoitida bu yondashuv madaniyatlararo kommunikatsiya madaniyatini rivojlantirishda muhim. Talabalar rus, ingliz va o'zbek tillarida kasbiy muloqot olib borar ekan, ularning har biri turli madaniy va sotsial normaga ega. Shuning uchun lingvopragmatik yondashuv bu tafovutlarni didaktik resurs sifatida ishlatadi. So'nggi yillarda lingvopragmatika O'zbekiston ilmiy makonida faol rivojlanmoqda. Jumladan: Abdurahmonova Z.M.[22] CLIL yondashuvi asosida kommunikativ savodxonlikni shakllantirish bo'yicha empirik tadqiqotlar olib borgan; Yuldosheva M.R.[21] psixolingvistik asoslar orqali terminologik tayyorgarlikning ahamiyatini yoritgan; Rahimov D.R.[23] fanlararo integratsiyaning pragmalingvistik potensialini tahlil qilgan; Rustamova F.M.[20] leksik kompetensiya rivojida lingvodidaktik

integratsiyaning samaradorligini isbotlagan. Bu ishlar lingvopragmatikaning amaliy ta'limdagi ahamiyatini tasdiqlaydi: o'qitish jarayonida til - bu o'zlashtiriladigan narsa emas, balki faol kommunikativ harakatdir.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, lingvopragmatik yondashuv uch asosiy yo'nalishda ta'lim samaradorligini oshiradi:

Kognitiv yo'nalish - tilni fikrlash vositasi sifatida o'rganish;

Kommunikativ yo'nalish - nutqiy niyatni to'g'ri tashkil etish;

Madaniy yo'nalish - kontekst va etik me'yorlarni inobatga olish.

Bularning barchasi kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun zarur. Shunday qilib, lingvopragmatika o'qitishning integrativ, faoliyatga yo'naltirilgan va madaniyatga asoslangan modeli sifatida namoyon bo'ladi.

Muhokama

Lingvopragmatik yondashuvning asosiy g'oyasi - tilni muloqot uchun faol vosita sifatida o'rgatish, ya'ni «tilni bilish» emas, «til bilan harakat qilish» tamoyilini amalga oshirishdir. Bu yondashuvda o'quvchi shunchaki til birliklarini o'zlashtirmaydi, balki ularni maqsadga yo'naltirilgan kontekstda ishlatish orqali o'rganadi. Kasbiy ta'limda bu ayniqsa muhim, chunki o'quvchi - kelajakdagi mutaxassis. Uning kasbiy muloqoti turli nutqiy holatlarda (ilmiy konferensiya, ishlab chiqarish jarayoni, mijoz bilan muloqot, hisobot yozish) sodir bo'ladi. Demak, tilni o'rgatish jarayonida o'qituvchi illokutsion maqsad, pragmatik strategiya va kontekstni o'rgatishga yo'naltirilgan faol metodlardan foydalanishi lozim.

Grice va Leech nazariyalaridan kelib chiqib, dars jarayonida muloqotning asosiy tamoyillari (aniqlik, soddalik, izchillik, hurmat, ijobiy ohang) interaktiv mashqlar orqali o'rgatiladi.[3,4] Masalan, talabalar o'rtasida «problem-solving task» yoki «case discussion» shaklidagi mashg'ulotlar tashkil etilganda, ular nafaqat leksikani, balki nutqiy strategiyalarni - so'zni boshlash, murosaga kelish, argument keltirish, javob berish, o'z fikrini himoya qilish - ni ham amaliy o'rganadilar. Natijada, lingvopragmatik yondashuv tilni kommunikativ faoliyat vositasi sifatida shakllantiradi, bu esa kasbiy kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari asosida lingvopragmatik o'qitishning quyidagi modeli ishlab chiqilishi mumkin:

1-bosqich. Kognitiv tayyorlov bosqichi Maqsad - talabani til birliklarining pragmatik mohiyati bilan tanishtirish. O'qituvchi nutqiy akt, illokutsiya, kontekst va maqsadga yo'naltirilgan muloqot tushunchalarini misollar asosida tushuntiradi. Masalan: «Could you open the file?» (buyruq emas, iltimos) yoki «We might need to adjust the pressure.» (bevosita buyruq o'rniga yumshoq taklif). Bu bosqichda o'quvchilar pragmatik sezgirlikni rivojlantiradi.

2-bosqich. Kommunikativ amaliyot bosqichi. Bu bosqichda mashg'ulotlar nutqiy vaziyatlar asosida tashkil qilinadi. Har bir mashq - real kasbiy kontekstni aks ettiruvchi rolli o'yin yoki vaziyatli topshiriqdir: laboratoriyada jarayonni izohlash; ishchi yig'ilishda taklif bildirish; texnik muammoni izohlash yoki himoya qilish. Masalan, talabalar «Food Quality Control» bo'yicha terminologik muloqot olib boradilar, bunda har bir ishtirokchi nutqiy rolga ega bo'ladi: texnolog, laboratoriya rahbari, mijoz, nazoratchi va hokazo.

3-bosqich. Refleksiv baholash bosqichi. Mashg'ulotdan so'ng o'quvchilar o'z nutqiy faoliyatini tahlil qiladi, o'qituvchi bilan birgalikda pragmatik tahlil o'tkazadi: qaysi nutqiy strategiya ishladi? kontekstga mos so'z ishlatildimi? til ohangi madaniy jihatdan to'g'rimi? Bu

bosqichda o'quvchilar metapragmatik tafakkurni rivojlantiradilar, ya'ni o'z nutqini tahlil qilish qobiliyatini hosil qiladilar.

4-bosqich. Integrativ kompetensiya bosqichi. Yakuniy bosqichda o'quvchilar o'rgangan bilimlarini real kasbiy kontekstda qo'llaydilar. Bu bosqichda «mini-project», «case study», «simulation» kabi usullar ishlatiladi. Talaba kasbiy vaziyatni modellashtiradi, masalan: «Design a dialogue between a technologist and a supplier on the issue of packaging standards.» Bu bosqichda ESP va CLIL metodlari birlashtirilib, til + fan + kontekst uchligi orqali kommunikativ kompetensiya mustahkamlanadi.

Darsda o'qituvchi o'quvchini muloqot holatini to'g'ri baholash, niyatni aniqlash, ohangni moslashga yo'naltiradi. Shu tariqa o'quvchi o'zining kommunikativ shaxsiyatini shakllantiradi. Kognitiv nuqtai nazardan esa, o'quvchi tilni konseptual model sifatida o'zlashtiradi. Masalan, «to describe a technological process» strukturasi nafaqat grammatik model, balki kasbiy faoliyatda fikrni tizimli bayon etish sxemasidir.

Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, CLIL va ESP metodlari lingvopragmatik yondashuv bilan birgalikda eng samarali natija beradi. CLIL orqali o'quvchi fan mazmunini tilda ifoda etadi, ESP esa kasbiy kontekstni real holatga yaqinlashtiradi. Lingvopragmatika esa ularning o'zaro aloqasini kuchaytiradi - ya'ni o'qitish jarayonini kommunikativ-intentional (maqsadli muloqot) bosqichiga olib chiqadi. Masalan: CLIL: «Explaining the process of fermentation» (fan + til); ESP: «Describing quality parameters in food production» (kasbiy terminologiya); Lingvopragmatika: «Negotiating a disagreement about product standards» (nutqiy niyat, emotsional ohang, persuazivlik). Bu uch yondashuvni integratsiyalash natijasida o'quvchi til - tafakkur - kontekst - madaniyat zanjirini ongli tarzda o'zlashtiradi.

O'qitish jarayonida lingvopragmatik mashg'ulotlar quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

1. Talabalar kasbiy terminlarni real muloqot kontekstida ishlatadilar. Masalan: «Discuss the difference between sterilization and pasteurization in your plant.»
2. O'quvchilar bir nutqiy shaklni turli pragmatik maqsadlarda qayta ifodalashni o'rganadilar. Masalan: «Give me the data» → «Could you please share the data?» (buyruq → iltimos).
3. «Quality inspection» mavzusida laboratoriya xodimi va menejer o'rtasidagi muloqotni sahnalashtirish. Bu mashqlar illokutsion aktini o'rgatadi.
4. Talabalar texnik maqola yoki hisobotdagi pragmatik signallarni aniqlaydilar: «it is assumed that...», «our findings suggest...», «the results indicate...». Bu diskurs markerlari orqali nutqning persuaziv kuchi tahlil qilinadi.

Mashg'ulotdan so'ng talaba o'z nutqini yozma shaklda tahlil qiladi, Grice maksimlariga (haqiqat, aniqlik, moslik) muvofiqligini baholaydi. Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, lingvopragmatik yondashuv: o'quvchilarning muloqotga psixologik tayyorgarligini oshiradi; terminologiyani faol qo'llash ko'nikmasini rivojlantiradi; til o'rganishni ijtimoiy faoliyatga aylantiradi; madaniyatlararo sezgirlikni kuchaytiradi; ijodiy fikrlash va nutqiy moslashuvchanlikni rivojlantiradi. Talabalar faqat «so'z biluvchi» emas, balki nutqiy strateg bilan fikrlovchi shaxsga aylanadi. Biroq lingvopragmatik yondashuvni ta'limga tatbiq etishda ba'zi qiyinchiliklar mavjud: o'qituvchilarning pragmalingvistik tayyorgarligi yetarli emas; fan va til o'quv dasturlari o'rtasida muvofiqlashtirish yetarli emas; baholash tizimi ko'proq

grammatik bilimga yo'naltirilgan. Bu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

1. o'qituvchilar uchun CLIL+Pragmatics kurslarini joriy etish;
2. baholash tizimiga kommunikativ indikatorlar kiritish;
3. darsliklarni kontekstual materiallar bilan boyitish (real kasbiy nutq namunalari kiritish).

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, lingvopragmatik yondashuv kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda uchta asosiy integrativ mexanizmni yaratadi:

1. Til – tafakkur - kontekst uyg'unligi - o'quvchi tilda fikrlaydi, kontekstda gapiradi;
2. Kommunikativ niyatni anglash - o'quvchi har bir so'zning maqsadini tushunib ishlatadi;
3. Madaniyatlararo idrok - o'quvchi til orqali boshqa madaniyatni anglaydi va o'zini tanitadi.

Shu tarzda, lingvopragmatik yondashuv nafaqat metodik yangilik, balki pedagogik falsafa sifatida ham qaraladi - u tilni o'qitishni insonning ijtimoiy-madaniy faoliyati bilan birlashtiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, lingvopragmatik yondashuv oliy ta'lim tizimida kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning eng samarali metodlaridan biridir. Bu yondashuvning o'ziga xos jihati - tilni o'rganish jarayonini ijtimoiy-madaniy muloqot bilan bog'lash, ya'ni o'quvchini real hayotiy kommunikativ faoliyatga tayyorlashdir. Tilshunoslikdagi pragmatika yo'nalishining (Austin, Searle, Grice, Leech, Halliday) asosiy g'oyalari - nutqni ijtimoiy harakat sifatida talqin etish, illokutsion maqsadni aniqlash, madaniyatlararo muvozanatni saqlash - o'qitish jarayonida didaktik prinsiplar sifatida tatbiq etilishi mumkinligi isbotlandi. Shu orqali o'quvchi grammatik jihatdan to'g'ri, mazmunan esa maqsadga yo'naltirilgan, madaniy mos va psixologik jihatdan ta'sirchan nutqni shakllantira oladi.

CLIL va ESP modellarining lingvopragmatik integratsiyasi natijasida kasbiy tilni o'rganish jarayoni mazmun, kontekst va madaniyat bilan birgalikda amalga oshadi. Bu esa o'quvchini «til egallovchi» emas, balki kommunikativ faoliyat ishtirokchisi sifatida shakllantiradi. O'qituvchi esa endilikda bilim beruvchi emas, balki kommunikatsiyani tashkil etuvchi fasilitator rolini bajaradi. Amaliy tahlillar shuni ko'rsatdiki, lingvopragmatik mashg'ulotlar (rol o'yinlari, case study, pragmatik transformatsiya mashqlari, dialogik bahslar) o'quvchilarning:

- muloqotdagi o'zini ifoda etish qobiliyatini;
- terminlardan to'g'ri foydalanish malakasini;
- madaniyatlararo idrok va pragmatik sezgirlikni;
- ijodiy fikrlash va o'zaro hurmat madaniyatini rivojlantiradi.

Lingvopragmatik yondashuvning asosiy natijasi shundan iboratki, til o'qitish jarayoni endi faqat bilim berish emas, balki fikr, xulq va shaxsiyatni shakllantirish vositasiga aylanadi. Shu bois, bu yondashuv nafaqat metodik, balki falsafiy ahamiyat kasb etadi - u ta'limni insoniy muloqot, madaniyat va tafakkur integratsiyasi sifatida ko'radi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Austin, J. L. How to Do Things with Words. - Oxford: Clarendon Press, 1962.
2. Searle, J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. - Cambridge: CUP, 1969.
3. Grice, P. Logic and Conversation. // Syntax and Semantics. - 1975. - Vol. 3. - P. 41-58.
4. Leech, G. Principles of Pragmatics. - London: Longman, 1983.

- 5.Halliday, M.A.K. Language as Social Semiotic: The Social Interpretation of Language and Meaning. - London: Edward Arnold, 1994.
- 6.Hymes, D. On Communicative Competence. - Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972.
- 7.Canale, M., Swain, M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. // Applied Linguistics. - 1980. - Vol. 1. - P. 1-47.
- 8.Coyle, D., Hood, P., Marsh, D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. - Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
- 9.Hutchinson, T., Waters, A. English for Specific Purposes: A Learning-Centered Approach. - Cambridge: CUP, 1987.
- 10.Lakoff, G., Johnson, M. Metaphors We Live By. - Chicago: University of Chicago Press, 1980.
- 11.Bruner, J. The Culture of Education. - Cambridge: Harvard University Press, 1996.
- 12.Kramsch, C. Language and Culture. - Oxford: Oxford University Press, 1998.
- 13.Byram, M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. - Clevedon: Multilingual Matters, 1997.
- 14.Widdowson, H. G. Discourse Analysis. - Oxford: OUP, 2007.
- 15.OECD. Future of Education and Skills 2030: Conceptual Learning Framework. - Paris, 2023.
- 16.UNESCO. Competency-Based Education for Sustainable Development. - Paris, 2021.
- 17.O'zbekiston Respublikasi Milliy o'quv dasturi. - Toshkent, 2021.
- 18.Mahmudov, A.X. Oliy ta'limda kasbiy tilni o'qitishning lingvometodik asoslari. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
- 19.Muslimov, N.A. Kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish. - Toshkent, 2022.
- 20.Rustamova, F.M. Lingvodidaktik integratsiya asosida leksik kompetensiyani rivojlantirish. // Pedagogik ta'lim jurnali. - 2021. - №2.
- 21.Yuldosheva, M.R. Terminologik tayyorgarlikning psixolingvistik asoslari. // Oliy ta'lim muammolari jurnali. - 2022. - №4.
- 22.Abdurahmonova, Z.M. Talabalarning kommunikativ savodxonligini shakllantirishda CLIL yondashuvi samaradorligi. // Ta'limda integratsiya jurnali. - 2023. - №3.
- 23.Rahimov, D.R. Fanlararo integratsiyaning metodologik asoslari. - Toshkent: TDPU, 2022..